

REPRODUKTIV HUQUQLARNI HIMOYA QILISHDAGI MILLIY VA XALQARO HUQUQIY MEXANIZMLAR O'RTASIDAGI O'ZARO MUNOSABATLAR

Shinibayeva Umida Aliyevna

Toshkent davlat yuridik universiteti

Tabiiy resurslar yo'nalishi magistranti

e-mail: shinibaevaumida001@gmail.com

tel: +998912700232

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15590882>

"Reproduktiv" atamasi lotincha "ishlab chiqarish", "ko'payish" so'zidan kelib chiqqan. "Reproduktiv" tushunchasi kontekstida biz odatda reproduktiv xatti-harakatlar haqida gapiramiz, Sovet demografi V.A. Borisov tomonidan taklif qilingan reproduktiv xulq-atvorning ta'rifi qo'llaniladi, bu "nikoh ichida yoki nikohsiz har qanday tartibdagi bolaning tug'ilishi yoki tug'ilishini rad etishda vositachilik qiladigan harakatlar va munosabatlar tizimi"¹

Reproduktiv huquqlar inson huquqlari tizimining ajralmas bo'lagi sifatida zamonaviy huquqiy va ijtimoiy munosabatlar doirasida tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Insonning o'z tanasi, jinsiy va reproduktiv hayotiga oid mustaqil va ongli ravishda qaror qabul qilish huquqi, ularning salomatligi, shaxsiy erkinligi va qadr-qimmatining asosiy kafolati sifatida e'tirof etiladi. Bugungi kunda bu huquqlarni to'liq ro'yobga chiqarish va ularni har tomonlama himoya qilish nafaqat davlat ichki siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri, balki xalqaro hamjamiyatning ustuvor maqsadlaridan biri sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

G. B. Romanovskiyning fikricha, "reproduktiv huquqlar" sub'ektiv huquqlar bilan bog'liq to'liq shakllangan ilmiy kategoriya sifatida qaralishi mumkin emas; "Reproduktiv huquqlar" ma'lum darajada shartli xarakterga ega, ular mustaqil subyektiv huquqlar emas, balki asosiy inson huquqlari ham emas. Bundan tashqari, reproduktiv jarayonlarni tartibga solish fuqarolarning shaxsiy huquqlariga ta'sir qiladi.²

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Kengashi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini tugatish qomitasi (CEDAW) va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatida reproduktiv huquqlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayollar va erkaklarning teng huquqli ravishda reproduktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish, ularni majburiy sterilizatsiya, majburiy abort, shafqatsiz tug'ruq sharoitlari yoki oilaviy zo'ravonlikdan himoya qilish xalqaro standartlar darajasiga ko'tarilgan. Shu bilan birga, har bir davlat o'zining tarixiy, madaniy, diniy va ijtimoiy o'ziga xosligiga tayangan holda reproduktiv huquqlarga oid masalalarni milliy qonunchilik darajasida tartibga soladi. Bu esa xalqaro huquqiy normalarni milliy huquq tizimiga integratsiyalash jarayonida qator muammolar va kolliziyalarni yuzaga keltiradi. Jumladan, ayrim davlatlarda reproduktiv huquqlar, ayniqsa, abort qilish erkinligi, kontratsepsiya vositalariga kirish yoki jinsiy tarbiya bo'yicha ta'lim olish kabi masalalar diniy yoki mafkuraviy cheklavlarga duch keladi. Bu holat, o'z navbatida, xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab qiladi.

¹ Борисов В. А. Перспективы рождаемости. М.: Статистика, 1976.

² Романовский Г. Б Теоретические проблемы права человека на жизнь: конституционно-правовое исследование: автореф. дисс. д-ра юрид. наук. Пенза, 2006.

Reproduktiv huquqlarni himoya qilish masalasidagi milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlarning o'zaro aloqadorligi va ta'sirchanligini o'rganish, ushbu tizimda mavjud bo'lgan normativ-huquqiy kolliziyalarni bartaraf etish yo'llarini izlash va eng yaxshi xalqaro tajribalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish bugungi yuridik fan oldida turgan muhim vazifalardandir. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi kabi rivojlanayotgan demokratik davlatlar uchun ushbu yo'nalishda izchil huquqiy islohotlarni amalga oshirish, inson huquqlari, jumladan, reproduktiv huquqlarning konstitutsiyaviy kafolatlarini mustahkamlash orqali ijtimoiy adolat, gender tengligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu ilmiy ishda reproduktiv huquqlarni himoya qilish sohasida mavjud milliy va xalqaro huquqiy mexanizmlar o'rganilib, ularning o'zaro uyg'unlashuvi, mavjud muammolari, ularni hal qilishda samarali yondashuvlar hamda amaliy takliflar ishlab chiqishga intilamiz. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan shu masalalarni chuqur tahlil qilish va huquqiy jihatdan asoslangan xulosalar berish zaruratida namoyon bo'ladi.

Olimlarning fikricha, milliy-hududiy yaxlitlikni saqlashning eng samarali vositasi oilaviy turmush tarzini tizimli targ'ib qilish orqali tug'ilish darajasini tartibga solish va mamlakatning demografiyasidan kelib chiqqan holda uch va undan ortiq bolali oilalar salmog'ini keskin oshirish yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatni e'tiborga olgan holda demografik siyosatni faollashtirishdir.³

Reproduktiv huquqlar zamonaviy huquqshunoslikda inson huquqlari tizimining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Ular ilk bor insonning biologik va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqiy kategoriya sifatida 20-asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Asosan, 1968-yilgi Tehron konferensiyasida ilk bor xalqaro darajada farzand ko'rish masalasida erkinlik inson huquqi sifatida tan olindi. Keyinchalik bu g'oya 1994-yilgi Qohira konferensiyasi va 1995-yilgi Pekin harakatlar platformasida mustahkamlandi.

Reproduktiv huquqlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Nikoh va farzand ko'rish bo'yicha erkin qaror qabul qilish;
- Kontratseptiv vositalarga to'siqsiz kirish;
- Reprodukativ salomatlikka oid axborotni olish;
- Reprodukativ sog'liq bo'yicha xavfsiz va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish;
- Majburiy sterilizatsiya, abort yoki tug'ruqdan majburlab saqlash kabi holatlardan himoyalanih.

Bu huquqlar xalqaro normalar bilan kafolatlangan bo'lsa-da, ularning har bir davlatda amaliyotga tatbiq etilishi turlicha bo'lib, aynan shu yerda milliy va xalqaro mexanizmlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish masalasi yuzaga chiqadi.

Xalqaro huquq tizimida reproduktiv huquqlarning mazmun-mohiyatini aniqlashtirish va ularni huquqiy jihatdan kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi asosiy normativ-huquqiy manbalar quyidagilardan iboratdir.

Ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish bo'yicha Konvensiyaning 12-moddasi davlatlardan sog'liqni saqlash xizmatlariga, ayniqsa, reproduktiv sog'liqqa oid xizmatlarga ayollar va erkaklar uchun teng kirishni kafolatlashni talab qiladi. Bu normalarning ijrosi ustidan nazorat CEDAW qo'mitasi tomonidan yuritiladi. Mazkur qo'mita 1999-yilda qabul qilingan fakultativ protokol asosida ayollar tomonidan shaxsiy shikoyatlarni qabul qilish huquqiga ega.

³ Антонов А. И., Борисов В. А. Проблемы демографического социального развития // Динамика населения России в XXI веке и приоритеты демографической политики. М.: Ключ-С, 2006

BMTning boshqa tuzilmalari ham, xususan, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo'yicha qo'mita (CESCR) va Inson huquqlari qo'mitasi reproduktiv huquqlarni asosiy insoniy erkinliklar tarkibida ko'rib chiqadi. Ayniqsa, CESCRning 22-sonli umumiy sharhida reproduktiv huquqlar "sog'liq huquqining ajralmas qismi" sifatida ta'kidlangan.⁴

Evropa sud amaliyoti ham reproduktiv huquqlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Masalan, "A, B va C Irlandiyaga qarshi"⁵ ishi, "Ternovszky Vengriyaga qarshi" ishi kabi presedentlar shaxsning tanlov erkinligi va davlatning majburiyatlarini yoritib berdi.

O'zbekiston Respublikasi reproduktiv huquqlarni milliy qonunchilik orqali tan olgan. Xususan:

"Fuqarolarning reproduktiv salomatligini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun (2009) – bu qonun reproduktiv salomatlik, tug'ruqdan oldingi va keyingi tibbiy xizmatlar, ayollarning salomatligini himoya qilish tartiblarini belgilaydi;

"Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonun – fuqarolarning tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqlarini umumiy tartibda belgilaydi;

Konstitutsiyaning 26-moddasi – shaxsiy daxlsizlik va erkinlik huquqi asosida reproduktiv tanlov erkinligi bilan uzviy bog'liq.

Reproduktiv huquqlarga oid milliy va xalqaro mexanizmlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni quyidagi tahliliy jihatlar orqali baholash mumkin:

Reproduktiv huquqlar zamonaviy huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu huquqlar shaxsning o'z tanasi, salomatligi va farzand ko'rish borasidagi erkin tanloviga asoslangan bo'lib, inson qadr-qimmati, shaxsiy erkinlik va tenglik prinsiplarining amaliy ifodasidir. Bu huquqlarning xalqaro darajada tan olinishi ularni universal inson huquqlarining bir qismi sifatida qarashga imkon yaratdi. Shu bilan birga, ularni to'laqonli amalga oshirish milliy huquqiy, ijtimoiy va madaniy kontekstga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xalqaro hamjamiyat, xususan BMT va unga qarashli tuzilmalar, Yevropa Inson huquqlari sudi hamda boshqa xalqaro organlar reproduktiv huquqlarning huquqiy asoslarini yaratishda, ularni ilgari surishda va davlatlar zimmasiga majburiyatlar yuklashda salmoqli yutuqlarga erishgan. CEDAW, ICPD harakatlar platformasi, Pekin deklaratsiyasi kabi asosiy hujjatlar ushbu huquqlarning keng ko'lamda tan olinishi va amaliyotda tatbiq etilishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy va sohaviy qonunchilik darajasida reproduktiv huquqlarni tan olgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda xalqaro standartlarga to'liq moslashish hali to'liq ta'minlangan deb bo'lmaydi. Kontratseptiv vositalarga kirishdagi hududiy tafovutlar, abortga oid tartib-taomillarning notekis talqin qilinishi, jinsiy tarbiya va axborotdan foydalanish darajasining pastligi — amaliyotdagi dolzarb muammolardandir.

Yuqoridagilar asosida aytish mumkinki, reproduktiv huquqlarni samarali himoya qilish faqatgina qonunchilik darajasidagi normalar bilan emas, balki ularning amaliy hayotda tatbiq etilishi, institutsional va madaniy muhit bilan uyg'unlashuvi orqali ro'yobga chiqarilishi mumkin. Shu maqsadda milliy va xalqaro mexanizmlar o'rtasidagi aloqadorlikni yanada chuqurlashtirish huquqiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

⁴ <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/cescr>

⁵ <https://www.echr.coe.int/w/a-b-and-c-v-ireland>

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Антонов А. И., Борисов В. А. Проблемы демографического социального развития // Динамика населения России в XXI веке и приоритеты демографической политики. М.: Ключ-С, 2006
2. Борисов В. А. Перспективы рождаемости. М.: Статистика, 1976.
3. Романовский Г. Б. Теоретические проблемы права человека на жизнь: конституционно-правовое исследование: автореф. дисс. д-ра юрид. наук. Пенза, 2006.
4. Committee on Economic, Social and Cultural Rights (CESCR) Human Rights Council and Treaty Mechanisms Division Office of the United Nations High Commissioner for Human Rights (OHCHR)
5. <https://www.ohchr.org/en/treaty-bodies/cescr>
6. The European Court of Human Rights
7. <https://www.echr.coe.int/w/a-b-and-c-v.-ireland>